UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING GEOGRAFIYA FANIGA QO‘SHGAN HISSASI

Ashurov Jumanazar Saidkulovich
Termiz davlat pedagogika institute Texnologiya va geografiya kafedrasi o’qituvchisi
E-mail. ashurovjumanazar14@gmail.com +998912352234
Abdishukurova Guljaxon O‘rol qizi
Muzafarova Nilufar Sadriddin qizi
Termiz davlat pedagogika institute Geografiya ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning geografiya faniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Boburning “Boburnoma” asari asosida uning tavsifiy geografiya, harbiy geografiya, etnografik va iqtisodiy geografiyaga oid qarashlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Asarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlarining tabiiy-geografik xususiyatlari, iqlimi, relyefi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, aholi va xo‘jalik faoliyati haqidagi muhim ma’lumotlarning geografiya fanidagi ahamiyati ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, tavsifiy geografiya, harbiy geografiya, qiyosiy geografiya, geomorfologiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается вклад выдающегося мыслителя, полководца и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура в развитие географической науки. На основе произведения «Бабурнаме» анализируются его взгляды в области описательной, военной, этнографической и сравнительной географии. В статье освещаются сведения о природно-географических условиях, климате, рельефе, растительном и животном мире, населении и хозяйственной деятельности регионов Средней Азии, Афганистана и Индии. Показано, что географические наблюдения Бабура имели важное научное и практическое значение и опередили свое время.
Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Бабурнаме, география, описательная география, военная география, сравнительная география, Центральная Азия.

Abstract: This article analyzes the contribution of the prominent thinker, military commander, and statesman Zahiriddin Muhammad Babur to the development of geographical science. Based on the work *Baburnama*, the study examines Babur’s views on descriptive, military, ethnographic, and comparative geography. The article highlights valuable information on the natural and geographical features, climate, relief, flora and fauna, population, and economic activities of Central Asia, Afghanistan, and India. The research demonstrates that Babur’s geographical observations possessed significant scientific and practical value and were far ahead of their time.
Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, geography, descriptive geography, military geography, comparative geography, Central Asia.

Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq xalqlari tarixida nafaqat shoh, sarkarda va Hindistonda Boburiylar sulolasining asoschisi, balki buyuk olim, shoir, tarixchi, sayyoh va geograf sifatida ham alohida o‘rin egallaydi. Uning ilmiy merosi bo‘lgan “Boburnoma” asari XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlarining tabiati, aholisi, xo‘jaligi va tarixini aks ettiruvchi noyob manba hisoblanadi.

Mazkur asar geografiya fanining bir qator yo‘nalishlari, xususan, tavsifiy, harbiy, etnografik va qiyosiy geografiya uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois Boburning geografik qarashlarini o‘rganish hozirgi zamon geografiya fanining rivoji nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari asosiy manba sifatida tanlandi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar,

tarixiy-geografik tadqiqotlar va zamonaviy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy-taqqoslash, qiyosiy geografik tahlil, tavsifiy va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Bobur yoshligidanoq Farg‘ona, Samarqand, Toshkent vohalari, Hisor tog‘lari va Zarafshon vodiysi orqali sayohatlar qilgan. Bu jarayonlar uning geografik tasavvurlarini kengaytirgan va harbiy muvaffaqiyatlarida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur sharq xalqlari tarixida faqatgina shoh, sarkarda, Hindistonda Boburiylar sulolasining asoschisi sifatida emas, balki buyuk olim, shoir, tarixchi, sayyoh, geograf, o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi sifatida o‘chmas iz qoldirgan.

Boburning sarguzashtlarga boy hayoti o‘zining ilmiy merosi — “Boburnoma” asarida keltirilgan.

Ushbu asar XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tabiati, xalqlari, tarixi hamda biz tasvirlayotgan hududlarning Geografik o‘rni, iqlimi, o‘simliklari, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi va umuman Boburning Farg‘ona vodiysida o‘tgan yoshlik yillaridan to Hindistonda podshohlik qilgan yillarigacha bo‘lgan voqea-hodisalarni o‘z ichiga olgan tarixiy-memuar asardir.

Boburning geografik qarashlari turli xil namoyon bo‘lgan.

Tavsifiy geografiya. Bobur hududlarning joylashuvi, chegaralari, iqlimi, yer usti tuzilishi va tabiiy boyliklarini o‘ta aniqlik bilan tasvirlab bergan.

Harbiy geografiya. Harbiy yurishlar davomida geografik omillar Ya’ni yo‘llar, suv manbalari, tog‘ dovonlarining ahamiyatini yuqori baholab, strategik xaritalashga oid ma’lumotlar to‘plagan.

Etnografik va iqtisodiy geografiya. Hududlardagi aholi punktlari, shaharlar, aholining mashg‘ulotlari, turmush tarzi va savdo yo‘llari haqida muhim ma’lumotlar bergan.

“Boburnoma” dunyoning turli tillariga tarjima qilingan bo‘lib, turli davrlarda asar ustida tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy ishlar olib borilmoqda. “Boburnoma”ni ilmiy tadqiq etishda o‘zbekistonlik olimlarning xizmatlari kattadir.Boburnoma” dunyoning turli tillariga tarjima qilingan bo‘lib, turli davrlarda asar ustida tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy ishlar olib borilgan.

“Boburnoma”dan Kobul viloyatining geomorfologik, iqlimiy va geobotanik rayonlashtirishiga oid misollarni uchratish mumkin. H. H. Hasanov buni Bobur geografiyasining eng yuqori cho‘qqilaridan biri deb hisoblaydi.

“Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, Zahiriddin Muhammad Bobur asosiy vaqtini tog‘larda jang qilib va sayohatlar uyushtirib tabiat bilan hamohang o‘tkazgan. Bu unda geografik bilim va tasavvurlarining naqadar kengayishiga, qonuniyatlarni tez anglashiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, tabiatning sir-asrorlarini yaxshi bilishi janglarda g‘olib bo‘lishiga ham qo‘l kelgan.

U o‘zi yurgan yo‘llar, o‘zi bo‘lgan shahar va qishloqlarni, o‘zi ko‘rgan va kechirgan hodisalarni o‘ta ziyraklik bilan...bilan, ustamonona, hatto ularni tushunarli tarzda aniq tasvirlagan.

Bobur geografik bilimlarni yoritishda qiyosiy geografik tadqiqot usullarini birinchi qo‘llagan olim sifatida ham bilamiz. U o‘zi ko‘rgan hududlarni boshqa yaxshi bilgan hududlar bilan taqqoslagan, solishtirgan. Masalan, Kobul shahrini tasvirlaganda Samarqand bilan quyidagicha taqqoslaydi:

“Kobul havosidek havoli yer olamda borligi ma’lum emas. Yozlarda kechalari po‘stinsiz yotib bo‘lmaydi. Qishda, garchi qor aksar katta tushsa-da, lekin Samarqandchalok qattiq sovuĝi yoqdir. Samarqand va Tabriz xushhavolikda mashhurdir, lekin u shaharlarda qattiq sovuq bõladi, Samarqand qari Qabulcha bôlmasa ham qishi qattiq sovuqdir. Qabulcha bõlmasa ham yozlarda yaxshi havosi bor . Bunday qiyosiy tasvirlar Boburnomada juda kõp uchraydi. Bu õquvchiga hudud tabiiy xususiyatlarining bir-biridan farqini yoki õxshashligini bilishga shuningdek tabiat komplekslarining zonal va regional almashinish qonuniyatlarini anglashga yordam bergan.“Boburnoma”dan siyosatchilar, etnograflar, aholishunoslar, geobotaniklar, zoogeograflar, iqlimshunoslar o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan juda ko‘p faktik materiallarni ajratib olishlari mumkin.

Lekin shuni alohida qayd etishimiz kerakki, u tom ma’noda harbiy geografiyaga bag‘ishlangan asar hamdir. Bu o‘rinda shuni qayd etish lozimki, garchi harbiy geografiya fan sifatida XVIII asrdan e’tirof etilsada, harbiy geografiyaga doir bilimlar uzoq davrlardan buyon shakllanib kelgan, o‘rganilgan hamda qo‘llanilgan.Zahriddin Muhammad Bobur o‘z asarlari va harbiy yurishlari orqali harbiy geografiya faniga katta hissa qo‘shgan. Hindiston yarim orolidan buyuk 300 yildan ortiq hukmron bo‘lgan imperiya asoschisi va mohir tashkilotchi sifatida Boburning tajribasi va mulohazalari urushdagi harbiy strategiya taktika va geografik mulohazalarni tushunishga doimiy ta'sir ko‘rsatdi. Harbiy yurishlarda geografik tahlil.

Boburning „Boburnoma“ asarida uning harbiy yurishlari va strategik taktikalar va qarorlar qabul qilish borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan."Bobur yosh bo‘lishiga qaramay, o‘lkamizning geografik qiyofasini tasavvur qila olgan. Olim 15-16 yoshlarida Farg‘ona, Samarqand va Toshkent vohalarini bir necha marta kezib chiqqan. 19 yoshga to‘lgan yili Hisor tarafidan tog‘ga ko‘tarilib, Sardaryo va Amudaryo ko‘l orqali Zarafshon vodiysiga o‘tib Samarqandga kelgan. Ba’zi vaqtlarda askarlarni bilan yalni qisqartirish maqsadida tog‘ni aylanib o‘tmasdan, uni oshib o‘tib yangi oshuvlarni davonlarini ham latif qilgan. Urush vaqtida, janglarda tog'lar, dovonlar, yalangliklar muhim o'rin tutgan. Ayrim tog'lari baland tog'lardan o'tish qiyin bo'lganligi uchun aylab o'tha joylarda qolib ketgan. Bobur o'z sayohatlari chog'ida tog'lar, balandliklar, dovonlar, vodiqlar, jarlar va ularning o'lchamlari, xususiyatlari haqida ham drof-lieha to'xtalib o'tadi. Ularning ba'zilarini quyidagicha bayon etadi: "Qobul viloyati shimoliy Hindikush tog'iga tutashgan.

Natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Boburning geografik qarashlari bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘lgan:

Tavsifiy geografiya

Bobur hududlarning geografik o‘rni, chegaralari, relyefi, iqlimi, suv resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosini yuqori aniqlik bilan tasvirlagan. “Boburnoma”da Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Kobul va Hindiston hududlarining tabiiy sharoitlari mukammal bayon etilgan.

Harbiy geografiya

Bobur harbiy yurishlar davomida geografik omillarning ahamiyatini chuqur anglagan. Yo‘llar, suv manbalari, tog‘ dovonlari, vodiy va yalangliklarning harbiy strategiyadagi o‘rni “Boburnoma”da aniq ko‘rsatib berilgan. Bu jihatdan asar tom ma’noda harbiy geografiyaga oid muhim manba hisoblanadi.

Etnografik va iqtisodiy geografiya. Asarda shaharlar, aholi punktlari, aholining turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati va savdo yo‘llari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Bu ma’lumotlar etnograflar, aholishunoslar va iqtisodiy geograflar uchun muhim ahamiyatga ega.

Qiyosiy geografiya. Bobur geografik tasvirlarda qiyosiy usuldan keng foydalangan. Masalan, Kobul shahrining iqlimini Samarqand va Tabriz bilan taqqoslab, hududlarning o‘xshash va farqli jihatlarini ochib bergan. Bu usul hududiy zonallik va regional almashinish qonuniyatlarini anglashga xizmat qilgan.

Muhokama. Boburning geografik bilimlari uning sayohatlari va harbiy yurishlari bilan chambarchas bog‘liq. Tog‘lar, dovonlar, vodiylar va daryolar haqidagi kuzatuvlari bevosita amaliy tajriba asosida shakllangan. H.H. Hasanov “Boburnoma”dagi Kobul viloyatining geomorfologik, iqlimiy va geobotanik rayonlashtirilishini Bobur geografik tafakkurining eng yuqori cho‘qqilaridan biri deb baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat tarixiy shaxs, balki geografiya faniga sezilarli hissa qo‘shgan olimdir. “Boburnoma” asari tavsifiy, harbiy, etnografik va qiyosiy geografiya yo‘nalishlari uchun bebaho manba bo‘lib, bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Boburning geografik qarashlari o‘z davridan ancha ilgarilab ketganligi bilan ajralib turadi va zamonaviy geografik tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1999. – 368 b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Iatimov G. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri. – Toshkent, 2008.